



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№2(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,  
2-fevral, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik*  
*Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik*  
*Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor*  
*Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor*  
*Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)*  
*Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)*  
*Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)*  
*Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*  
*Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)*  
*Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)*  
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*  
*Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*  
*G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)*  
*Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*  
*Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti*  
*Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)*  
*Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)*  
*Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent*  
*Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori*  
*Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari*  
*Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari .....	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida .....	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish .....	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя .....	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari .....	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari .....	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi .....	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli .....	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish .....	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects .....	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni .....	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari .....	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli .....	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies .....	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili .....	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi .....	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations .....	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling .....	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish .....	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni .....	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni .....	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	156
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i>	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish .....	160
<i>Normurodova Gulnora Ikromovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari .....	164
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri .....	168
<i>Jurakulova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari .....	172
<i>Kazakova Saxiba Abdurayimovna</i>	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
<i>Ziyayev Adxamjon</i>	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini .....	182
<i>Jo'rayeva Nozima Nozim qizi</i>	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi .....	185
<i>Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	189
<i>Teshaboyeva Feruza Raximovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
<i>Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari .....	196
<i>Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</i>	



Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	200
<a href="#">Jabborova Salomat Abdijalilovna</a>	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
<a href="#">Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna</a>	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish .....	208
<a href="#">Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi</a>	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi .....	213
<a href="#">Raximova Xurshidaxon Sadikovna</a>	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari .....	217
<a href="#">Xalikova Nargiza Abduvaliyevna</a>	
Tilning obrazli kuchi: perifrastalar turlari va xususiyatlari .....	221
<a href="#">Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</a>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
<a href="#">Zayirkulova Nozima Ilyas qizi</a>	

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA OILANING KATTA AVLADI VA ULARNING TA'SIRI

Ashirova Sojida Baxromovna

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Maqola mazmunida "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oiladagi kattalarning ta'siri" mavzusini ilmiy jihatdan o'rgangan mashhur psixologlar va olimlar hamda ularning olib borgan tadqiqotlari yoritilgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bolalar rivojlanishining turli jihatlari, xususan, kattalar bilan munosabatlarning psixologik shakllanishga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslanganligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** oilaning katta avlodi, bog'lanish nazariyasi, hissiy barqarorlik, hissiy hamkorlik, tarbiyaviy qo'llab-quvvatlash, hayotiy tajriba, psixologik immunitet.

**Abstract:** The article analyzes the scientific studies of well-known psychologists and scholars who have examined the topic "The Influence of Adults in the Family on the Psychology of Preschool Children" and their research findings, many of which are scientifically grounded in the analysis of how various aspects of child development, particularly relationships with adults, affect psychological formation.

**Key words:** older generation of the family, attachment theory, emotional stability, emotional cooperation, educational support, life experience, psychological immunity.

**Аннотация:** В статье рассматриваются научные исследования известных психологов и ученых, изучавших тему "Влияние взрослых в семье на психологию детей дошкольного возраста", а также их работы, многие из которых научно обоснованы на основе анализа того, как различные аспекты развития ребенка, в частности отношения со взрослыми, влияют на формирование его психологического облика.

**Ключевые слова:** старшее поколение семьи, теория привязанности, эмоциональная стабильность, эмоциональное сотрудничество, образовательная поддержка, жизненный опыт, психологический иммунитет.

## KIRISH

"Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga kattalarning ta'siri" mavzusining dolzarbligi bugungi kunda bir necha muhim omillar bilan izohlanadi. Jumladan, erta yosh shaxs shakllanishining eng muhim bosqichi bo'lib, unda bola shaxsiyati, xarakteri, o'ziga bahosi va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Bu bosqichda bola asosan ota-ona va yaqin kattalar ta'siri ostida rivojlanadi. Shuning uchun kattalarning munosabati kelajakdagi psixologik barqarorlikka bevosita ta'sir qilishi tadqiqotlarda isbotlangan. Zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar, ya'ni texnologiyalar va gadjetlardan erta foydalanish, ota-onalarning bandligi, oilaviy ajrimlar sonining ortishi, urbanizatsiya va ijtimoiy muhitning o'zgarishi kabi omillar ham maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu omillar bolalarning ruhiy rivojlanishida yangi ta'sir shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli kattalarning ongli va mas'uliyatli tarbiyasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Emotsional va ijtimoiy muammolarning kundan kunga ko'payishi natijasida hozirgi kunda bolalar psixologiyasida tajovuzkorlik, tortinchoqlik, qo'rquv va xavotir, diqqat yetishmovchiligi kabi holatlar ko'proq kuzatilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu muammolarning ildizi ko'pincha oiladagi munosabatlar hamda kattalarning tarbiya uslubidagi kamchiliklarga borib taqaladi. Mavzuning ta'lim tizimidagi ahamiyati shundaki, maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida bolani har tomonlama rivojlantirish uchun ota-ona va tarbiyachi hamkorligi, ijobiy muloqot hamda psixologik qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Biroq pedagog va psixologlar malakasi hamda bilimining yetarli emasligi sababli mazkur muammolar ko'pincha amaliy yechim topmay qolmoqda. Bundan tashqari, kelajak jamiyatini shakllantirish maqsadida bugungi kunda bolalarni ertangi jamiyat a'zolari sifatida ko'rish masalasi dolzarb deb baholanmoqda. Holbuki, yetarlicha mehr ko'rgan va qo'llab-quvvatlangan bola



kelajakda ijtimoiy faol, mas'uliyatli va ruhiy sog'lom shaxs bo'lib voyaga yetadi. Shuning uchun mazkur mavzu nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, maktabgacha yosh davrida kattalarning to'g'ri yoki noto'g'ri ta'siri bolaning butun hayot yo'liga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda ongli tarbiya, psixologik savodxonlik va sog'lom oilaviy muhitni yaratish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologiyasiga oiladagi katta avlodning ta'siri muammosini bugungi kungacha bir qancha olimlar o'rgangan va ularning fikrlari hozirda ham ahamiyatli. Shuningdek, John Bowlby ingliz psixologi va psixoanalitigi, bog'lanish nazariyasining asoschisi bo'lib, u bolalar va ularning parvarishchilari o'rtasidagi hissiy bog'lanishning rivojlanish psixologiyasidagi rolini chuqur o'rgangan. Uning nazariyasi shuni ko'rsatadiki, bolalar ishonchli bog'lanishga ega bo'lganida ijtimoiy-emotsional barqarorlikka erishadi. Mary Ainsworth kanadalik psixolog bo'lib, tajribaviy asosda bog'lanish turlarini aniqlash mumkinligini ilgari surgan. Uning eksperimental metodlari orqali bolalar va ularning parvarishchilari o'rtasidagi bog'lanish tarbiya uslublari asosida aniqlangan. Uning tadqiqotlari oiladagi kattalarning sezgirligi bolalar hissiy xavfsizligiga bevosita ta'sir qilishini tasdiqlagan. Lev Vygotskiy rossiyalik psixolog va madaniy-tarixiy nazariya asoschisi bo'lib, u maktabgacha yoshdagi rivojlanishda ijtimoiy interaksiya va kattalar (ota-ona va tarbiyachilar) bilan muloqot orqali o'rganish jarayoni muhimligini ta'kidlagan. Vygotskiyning "Yaqqol rivojlanish zonasi" konsepti bola kattalarning yo'naltirishi bilan yanada murakkab vazifalarni hal eta olishini ko'rsatadi.

Diana Baumrind amerikalik psixolog, ota-ona tarbiya uslublari bo'yicha tadqiqotchi sifatida oiladagi kattalarning xatti-harakati (avtoritar, demokratik, beparvo) bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tizimli ravishda asoslab bergan. Uning yondashuvida demokratik tarbiya uslubi bolaning mustaqil va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lishiga ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilgari surilgan. Marian Bakermans-Kranenburg gollandiyalik psixolog bo'lib, ota-ona va bola o'rtasidagi emotsional regulyatsiya hamda neyrobiologik omillarning o'zaro aloqadorligini o'rgangan. Uning tadqiqotlari oiladagi kattalarning parvarish munosabatlari va bolaning emotsional holati, xususan stressga javobi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga xizmat qiladi. Andrew N. Meltzoff amerikalik psixolog bo'lib, bolaning taqlid orqali o'rganishi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va u chaqaloqlar hamda maktabgacha yoshdagi bolalar ota-ona yoki oiladagi boshqa katta yoshdagilarning harakat va ifodalarini taqlid qilish orqali ijtimoiy va kognitiv xulq-atvorni o'zlashtirishini ko'rsatgan. Adam Winsler amerikalik psixolog bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning xususiy nutqi va o'zini boshqarish jarayonlari qaysi omillar bilan bog'liqligini o'rgangan olim sifatida Vygotskiyning ijtimoiy-kognitiv yondashuvini bolalar ta'limi hamda ota-onalar bilan muloqot amaliyotiga tatbiq etish ustida ish olib borgan va samarali natijalarga erishgan. Aletha J. Solter amerikalik psixolog bo'lib, maktabgacha yoshdagi bola bilan ota-ona va oiladagi katta yosh vakillari o'rtasidagi munosabatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan travma, stress va nizolarni tarbiya uslublari orqali bartaraf etish masalalarini tadqiq etgan. U ota-onalar va oilaning katta avlod vakillari bolalar bilan ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi muloqot orqali emotsional salomatlikni yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishi zarurligini ilmiy asoslab bergan.

## TADVIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri" mavzusini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi rivojlanish psixologiyasi, oilaviy psixologiya, bog'lanish nazariyasi (attachment theory), ijtimoiy-madaniy yondashuv hamda tarbiyaviy ta'sir konsepsiyalariga tayanadi. Ilmiy izlanishda maktabgacha yosh davrining psixologik xususiyatlari, bolaning hissiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga oilaning katta avlodi (bobo-buvi va boshqa kattalar)ning ta'siri tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot dizayni aralash (mixed methods) yondashuv asosida ishlab chiqildi. Sifat va miqdoriy metodlar uyg'unligi orqali muammoning mohiyati chuqur o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnashotgan 5-7 yoshli bolalar hamda ularning oilalari tanlab olindi. Predmet sifatida esa oilaning katta avlodining bolalar psixologik rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'sir mexanizmlari belgilandi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida kuzatish, yarim tuzilgan intervyu, so'rovnomalar, psixologik diagnostik testlar va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali bolalarning hissiy reaksiyalari, ijtimoiy faolligi va kattalar bilan o'zaro munosabatlari tabiiy sharoitda o'rganildi.

Intervyular ota-onalar va oilaning katta avlodi vakillari bilan o'tkazilib, ularning tarbiyaviy qarashlari, muloqot uslubi va bolaga ko'rsatayotgan psixologik ta'siri aniqlashtirildi. So'rovnomalar natijalari statistik tahlil qilinib, o'zaro bog'liqlik ko'rsatkichlari korrelyatsion tahlil asosida baholandi. Psixologik diagnostika jarayonida bolaning hissiy

barqarorligi, o'ziga ishonchi, ijtimoiy moslashuv darajasi va psixologik immuniteti maxsus mezonlar asosida aniqlanib, natijalar taqqoslandi. Tadqiqotning ishonchliligi va validligini ta'minlash maqsadida triangulyatsiya usulidan foydalanildi hamda olingan natijalar o'zaro solishtirildi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda tavsifiy statistika, foizli taqsimot, o'rtacha arifmetik qiymat va dispersiya ko'rsatkichlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida axloqiy tamoyillarga qat'iy rioya qilindi, ishtirokchilarning roziligi olindi hamda shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlandi. Mazkur metodologik yondashuv oilaning katta avlodining maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sir omillarini aniqlash hamda ularni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bilamizki, maktabgacha yoshdagi bola – bu “oq qog'oz” emas, balki faol o'rganayotgan shaxsdir. Oiladagi va jamiyatdagi kattalarning ularga namuna bo'lishi, ijobiy va ijodiy faoliyatga yo'naltirishi hamda hissiy tayanch berishi muhimdir. Maktabgacha yosh davrida bola mehr, sabr va to'g'ri tarbiyaga ehtiyoj sezadi, bu omillar bolaning kelajakdagi shaxsiyati, o'ziga bahosi va ijtimoiy moslashuviga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Biz quyida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos ba'zi xususiyatlari haqidagi faktlarni keltirib o'tamiz. Maktabgacha yoshdagi bolada emotsional (hissiy) ta'sirning kuchli bo'lishi uni boshqa davrlardan farqlaydi. Bu yoshda bolalarga mehr, e'tibor va qo'llab-quvvatlash ko'rsatish ularning o'ziga ishonchini oshiradi. Aksincha, sovuqqonlik, doimiy tanbeh yoki beparvolik qo'rquv, tortinchoqlik va ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Mehr ko'rgan bola ochiq, ijtimoiy va barqaror bo'ladi, shu bois ota-onaning kayfiyati va munosabati bola ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tusda bo'lishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqi va tafakkuri aynan shu davrda jadal rivojlantiradi. Kattalarning bolalar bilan suhbat qurishi, ertak o'qib berishi, savol-javob tashkil etishi bolalarning lug'atini boyitadi. Bola kattalarning nutqiga taqlid qiladi. Bolalar bilan olib boriladigan tushuntirish va izohlash ishlari ularning tafakkurini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning xulq-atvori shakllanishi ham aynan shu davrda jadal kechadi va u ko'proq ko'rganini takrorlash, ya'ni taqlid mexanizmiga asoslanadi. Demak, oilada kattalar hurmatli va sabrli bo'lsa, bola ham shunday bo'ladi. Kattalarning bolalarga qo'pollik qilishi yoki tajovuzkor muhit namoyon etishi bolada agressiv xulq-atvor shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolada o'ziga xos mustaqillik va mas'uliyat ham aynan shu davrda ko'zga tashlanadi. Kattalarning bolaga kichik vazifalar berishi (o'yinchoq yig'ish, kiyinish) ulardagi mustaqillikni rivojlantiradi, haddan tashqari nazorat esa bolada ishonchsizlik va qaramlikni kuchaytiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin orqali rivojlanishi boshqa davrlarga nisbatan aynan shu bosqichda sezilarli o'zgarishlarda namoyon bo'ladi, shu bois kattalar ular bilan o'yinda ishtirok etsa yoki yo'naltirsa, ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi. Rolli o'yinlar orqali bola hayotni tushunishni boshlaydi va ijtimoiy qoidalarni o'zlashtiradi. Tarbiya va ta'lim nazariyasida har qanday yoshdagi inson uchun jazolash va rag'batlantirish metodlari goh ijobiy, goh salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolaga ham ijobiy rag'batlantirish (maqto'v) orqali samaraliroq yondashish mumkin, bu esa oilada aynan kattalar tomonidan amalga oshirilsa, natijador bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning boshqalar tomonidan noto'g'ri jazolanishi unda qo'rquv va ichki zo'riqishni keltirib chiqaradi. Kattalarning maktabgacha yoshdagi bolalarga yondashishining eng samarali usuli tushuntirish va muloqot bo'lib, bu ularning psixologik rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha yosh davri bola shaxsining shakllanishida eng muhim bosqich bo'lib, bu davrda jamiki psixologik jarayonlar unda rivojlanish holatida bo'ladi. Shu bois ularning psixologiyasiga nafaqat ota-ona, balki oilaning katta avlodi – bobo va buvilar ham muhim tarbiyaviy, ma'naviy va emotsional ta'sir ko'rsatadi. Katta avlod vakillari bolaga mehr, e'tibor, hayotiy tajriba va milliy qadriyatlarni singdirish orqali uning psixologik barqarorligi, o'ziga ishonchi hamda ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi – bobo va buvilar tomonidan beriladigan ertaklar, pand-nasihatlar, urf-odat va an'analarga oid bilimlar bolada axloqiy sifatlar, hurmat, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi fazilatlarining shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, katta avlodning qo'llab-quvvatlashi bola ruhiy xavfsizligini ta'minlab, unda ishonch hissini mustahkamlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiya jarayonida ota-ona va katta avlod o'rtasidagi qarashlarning bir xil bo'lishi muhimdir. Tarbiyadagi kelishmovchiliklar bolada ikkilanish, injiqlik yoki noto'g'ri xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun oiladagi o'zaro hurmat, hamkorlik va yagona tarbiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, oilaning katta avlodi maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida muhim o'rin tutadi va ularning ijobiy ta'siri ostida sog'lom fikrli, barkamol shaxs sifatida tarbiyalanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.X. Abdullaev, N.S. Raximov, M.O. Xadayev. "Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam". – T.: "Chashma", 2013-yil.
2. S. Jalilova. "Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya". O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020-yil. – 302-bet.
3. O'.M. Asqarova, M.A. Abdullayeva, M. Boltayeva. "Andragogika". O'quv qo'llanma. – Namangan, 2014-yil.
4. Sh.A. Do'stmuhamedova va boshqalar. "Umumiy psixologiya (2-kitob). Yosh davrlari va pedagogik psixologiya". Darslik. – T., 2020-yil.
5. Z.T. Nishanova. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". Darslik. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018-yil. – 600-bet.
6. M. Maxsudova. "Muloqot psixologiyasi". O'quv qo'llanma. – T.: "Turon-iqbol" nashriyoti, 2006-yil. – 119-bet.
7. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Inog'omova. "Pedagogika". Metodik qo'llanma. – T., 2012-yil. – 456-bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.